

SHAXS TARBIYASIDA OILALARDA KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSLARI

Ergashev Shohrux Ahad o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs tarbiyasida oilalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy hamda pedagogik asoslari xususida fikr-mulohazalar bayon etilgan bo'lib, bugungi kunda jamiyatimizda aynan shu sohada amalga oshirilayotgan madaniy islohotlar chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, oilalarda kitobxonlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar va milliy an'analar tarixiy misollar asosida izchil yondashilib, kitobxonlik targ'iboti xususida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: shaxs tarbiyasi, oila, ijtimoiy madaniyat, kitobxonlik, mutolaa, yoshlar tarbiyasi, pedagogika, madaniy hayot, ilm-fan

FUNDAMENTALS OF FAMILY LIBRARY DEVELOPMENT IN PERSONAL EDUCATION

Ergashev Shahrukh Ahad ugli

Abstract: In this article, opinions on the social and pedagogical foundations of the development of reading culture in families are presented, and the cultural reforms implemented in this field in our society today are deeply analyzed. Also, the values and national traditions related to reading activities in families are consistently approached on the basis of historical examples and discussed in the context of the promotion of reading.

Key words: family, social culture, reading, reading, youth education, pedagogy, cultural life, science

ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СЕМЕЙНОЙ БИБЛИОТЕКИ В ЛИЧНОСТНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Эргашев Шохрух Ахад ўғли

Аннотация: В данной статье представлены взгляды на социально-педагогические основы развития культуры чтения в семье, а также глубоко проанализированы культурные реформы, реализуемые в этой сфере в нашем обществе сегодня. Также на основе исторических примеров последовательно

рассматриваются ценности и национальные традиции, связанные с читательской деятельностью в семьях, и обсуждаются в контексте пропаганды чтения.

Ключевые слова: семья, социальная культура, чтение, чтение, воспитание молодежи, педагогика, культурная жизнь, наука.

Kitob - inson umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo‘lguvchi sodiq do‘st. Insonning ruhiy-ma‘naviy kamolotini ta‘minlashda kitobchalik kuchli qudratga ega vosita yo‘qdir. Shu boisdan, azal-azaldan ma‘rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o‘qishga, undan ilmu odob sirlarini o‘rganishga chorlab kelishgan.

Tarbiyaning barcha mezon va unsurlari, avvalo, oilada shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda ham oilaning o‘rni nihoyatda kattadir. Qush uyasida ko‘rganini qiladi, degan naqlga tayansak, bu mohiyat yanada dolzarb bosqichga ko‘tariladi.

Darhaqiqat, shaxs takomilida oilaviy muhit, oilaviy qadriyatlar asosiy vosita rolini o‘taydi. Ota-onaning ma‘naviy darajasi, axloqiy qarashlari bevosita farzandga ham ko‘chib o‘tadi, farzandlar shaxsiyatida aks-sado beradi. Binobarin, kitobxonlik, badiiy adabiyotga muhabbat ham inson ma‘naviy tafakkurini, tarbiya ahvolini namoyon qiluvchi muhim xususiyatlar sirasidandir. Kitob dunyosiga oshufta, adabiy olamga hamnafas, badiiyatdan bahramand qalb egasi o‘zidagi bu tuyg‘u va fazilatlarni atrofida qilarga, ayniqsa, oilasiga ham yuqtirishi, singdirishi ehtimoli yuqori. Kitobxon ota-onalarning farzandi ham kitobga o‘zgacha mehr ko‘rsatadi, bu ma‘naviyat xazinasiga tabiiy qiziqish va intilish tuyadi. Shu bois kitobxon avlod tarbiyasida, avvalo, ota-onaning tarbiyali bo‘lishi, badiiy adabiyotga oshno ekanligi muhim zaruriyatdir.

Yaqin-atrofdagi tanish oilalarimiz hayotiga sinchkov nazar tashlasak, qaysi oilada kitobxonlik madaniyati qay darajada shakllanganligiga amin bo‘lamiz.

Kimdir dunyoviy hodisalar ummonida suzib yurishni xush ko‘rsa, kimlardir badiiy adabiyot osmonida sayr etishga ishtiyoqmand. Kimdir bir oyda bir kitob o‘qishga vaqt ajratsa, yana kimlardir bir haftada bir kitob mutolaa qilishni lozim biladi. Xullas, kitob bilan hamma o‘z olamida, o‘z xohish va imkoniyatlari chegarasida turli holatda yuzlashadi. Shu o‘rinda, mohiyatni yanada aniqlashtirish uchun aynan bir oila misolida kitobxonlikka qaratilgan e‘tibor xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Shunday oila borki, ular xonadonida kitob o‘qish kundalik mashg‘ulot, jiddiy faoliyat sifatida qadr topgan. Besh farzand o‘stirayotgan bu xonadon sohib va sohibalari ham o‘zlari, ham farzandlarining kitobxon bo‘lishi uchun intilishadi. O‘zi tug‘ilib-o‘sgan oilaviy muhitida o‘z vaqtida kitobga muhabbat, adabiyotga e‘tibor bilan ulg‘aygan, kitobxonlikni oilaviy muhim qadriyatga aylantirgan bu insonlar bugun farzandlarining ham kitob atalmish buyuk va bebaho xazinadan bahramand bo‘lib, ma‘naviy barkamollikka erishishini istaydi. Buning uchun, ham ota, ham ona o‘z vaqt va imkoniyatiga qarab, sermazmun, badiiy-estetik ahamiyati yuqori turli adabiy janrdagi, jahon va o‘zbek adabiyoti durdonalarini, diniy-ma‘rifiy sarchashmalarni tanlab xarid qilishadi. Bu asarlarni farzandlarining yosh va qiziqishlari, aqliy salohiyati, o‘zlashtirish qobiliyatini e‘tiborga olgan holda taqsimlab berishadi. Eng muhimi, kitob taqdim qilinganda, hajmini ham e‘tiborga olgan holda, mutolaa uchun muayyan vaqtlar ajratishadi.

Oila boshlig‘i, ya‘ni ota, bu borada yanada talabchan. U har kuni o‘qilishi lozim bo‘lgan sahifa miqdorini belgilab beradi, she‘riy asarlarga alohida qiziqish bildirib, har bir farzandiga she‘rlar yodlab borishni tayinlab turadi. Deyarli har kech ishdan qaytgach, ovqatlangandan so‘ng, farzandlarini birin-ketin chaqirib, bir pedagog kabi topshirilgan vazifa ijrosini qabul qilib oladi. Ya‘niki, farzandlar o‘zlari

yod olgan she'rlarni aytib berishadi; o'qiyotgan asarlaridan belgilangan sahifalar va uning mazmunini gapirishadi; qahramonlar faoliyati, xarakter-xususiyatiga munosabat bildirishadi. Kitobni yakunlaganlar esa asardan olgan taassurotlarini ham o'rtoqlashadi. Bu jarayonda farzandlarning o'zlashtirish ko'rsatkichi, topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashish darajasi, kitobxonlik madaniyati ham oydinlashib, o'ziga xos yondashuvlarga turtki bo'ladi. Yana bir muhim jihati, farzandlar o'ziga tegishli asarni o'qib bo'lgach, kitoblar almashtiriladi, biri-ikkinchisining kitobini ham o'qib-o'zlashtirib boraveradi. Shuningdek, oila davrasida ham kitob o'qib berish yo'lga qo'yilgan. Onaning uy yumushlari ko'p bo'lgani boisidan, ko'pincha dam olish kunlari ota farzandlarini atrofiga to'plab, tarbiyaviy ahamiyati yuqori ("Tarixi Muhammadiya", "Ijtimoiy odoblar", "Xamsa" kabi) asarlarni mutolaa qilib, mazmunini tushuntirib beradi. Natijada, farzandlarning umumiy tarbiyasida ham ijobiy mohiyat aks etadi.[2:45]

Bu kitobsevar oilada kitobxonlik bo'yicha ota barchaga munosib o'rnak. Kuni bilan davlatning muhim tashkilotida ishlab, oila tashvishlari bilan yelib-yugurayotgan bo'lishiga qaramasdan, har kech kitob mutolaasi bilan shug'ullanayotgan; biri qo'yib, ikkinchisini olib o'qiyotgan; ham she'riy, ham nasriy asarlarga birdek qiziqish bildiradigan, o'qigan asarlari mazmun-mohiyati, adibning ijodiy salohiyati borasidagi fikrlarini oilasi bag'rida muhokama qilayotgan otaning o'ziga xos bu fazilati beixtiyor, tabiiy ravishda farzandlarga ham ko'chib o'tadi, ularning hech birini umuman befarq qoldirmaydi. Bundan ko'rinadiki, yosh avlodning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishda oila eng muhim va mustahkam tayanch bo'lib qolaveradi.

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasida har doimgi davrdan bir necha barobar ko'p miqdorda samarali ishlar amalga oshirilmoqda, tashviqot-targ'ibotlar olib borilmoqda. Shunday bo'lsa ham, oilaviy muhitda kitobxonlik madaniyati takomili qoniqarli

darajada emas. Yuqorida ko‘rib o‘tganimiz kabi kitobsevar oilalar bilan bir qatorda, ularning aksi bo‘lgan oilaviy muhitni ham uchratishimiz achinarli. Ko‘pgina oilalar, ota-onalar na o‘zlari kitob o‘qishga qiziqishadi, na farzandlarini bu borada to‘g‘ri yo‘naltirishadi.

Shuningdek, oilaviy kitobxonlikda kitob tanlovi madaniyatiga hamma ham yetarlicha ahamiyat qaratilavermaydi. Badiiy asar tanlashda farzandining yosh va fiziologik xususiyatlari, ruhiy-ma‘naviy dunyosi, qiziqish va intilishlar ko‘lamini nazarda tutmas ekan, har qanday kitobsevar ota-ona bu borada ijobiy yutuqlarga erisha olmaydi. Ko‘rinadiki, mutolaa madaniyatining ham o‘ziga xos me‘yor va talablari mavjud. Shularni e‘tiborga olgan holda, oilaviy kitobxonlik madaniyatiga ega bo‘lish uchun quyidagi tavsiyalarni e‘tiborga olish nazarda tutiladi:

- kitob mutolaasida hamisha farzandlarga o‘rnak bo‘lish;
- kitob tanlash madaniyatiga ega bo‘lish;
- muayyan vaqtlarda oila davrasida navbatma-navbat kitob o‘qib berishni yo‘lga qo‘yish;
- xotirani kuchaytirish ahamiyatiga ega bo‘lgani boisidan farzandlarning she‘r yodlashiga alohida ahamiyat qaratish, bir oyda kamida 2 ta she‘r yodlatishga erishish;
- har bir farzandning yosh va xarakter xususiyati, ruhiy-ma‘naviy dunyosini nazarda tutgan holda kitob taqdim qilish;
- kichik yoshdagi bolalarga ko‘proq rang-barang suratlarga yo‘g‘rilgan, katta-katta harflarda yozilgan, uning beg‘ubor xayoloti sarhadlarini aks ettira olgan asarlarni tanlash;

- oʻrta yoshli kitobxon farzand uchun esa unga tengdosh qahramonlar taqdiri aks etgan, hayotiy, xayoliy-fantastik voqealar tasvirlangan, koʻngil kechinmalari jonlantirilgan asarlarni tavsiya qilish;
- katta yoshdagi mustaqil, oila qurgan farzandlar bilan ham tez-tez kitob mutolaasi xususida suhbat oʻtkazib, zaruriy tavsiyalar berib turish (bu oilaviy kitobxonlik anʼanasini muqaddas qadriyat sifatida davom ettirishga zamin yaratadi);
- har bir kitob mutolaasi uchun har kunlik va haftalik miqdorlarni belgilash va muntazam nazorat qilib borish;
- oʻqilgan asar mazmun-mohiyati, qahramonlar xarakter-xususiyati, ijodkor yondashuvi, olingan taassurotlar boʻyicha oilada davra suhbatini tashkil qilib borish;
- oʻz vaqtida va talab darajasida mutolaa qilgan kitobxon farzandni alohida ragʻbatlantirish;
- badiiy adabiyot oʻqishga yetarlicha qiziqish bildirmayotgan, topshiriqlarni oʻz vaqtida bajara olmayotgan farzand bilan alohida shugʻullanish, unda kitobxonlik koʻnikmalarini rivojlantirishga erishish;
- jamiyatning moddiy-maʼnaviy taraqqiyoti uchun munosib hissa qoʻshadigan yuksak maʼnaviyatli, intellektual salohiyatli oila sifatida qadr topish.

Oilalarda kitobxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy va pedagogik asoslari sifatida yuqoridagi mulohazalardan koʻrinadiki, maʼnaviy barkamol kitobxon avlod tarbiyasida oila muhim va mustahkam poydevor. Shu bois jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasidagi har qanday faoliyatda oila bilan hamohang, hamfikir ish yuritish koʻzlangan maqsadlarga erishishga Jamiyat, millatning rivojlanishi, taraqqiy etish tarixiga nazar tashlaydigan boʻlsak, bilimli, maʼnaviyatli va maʼrifatli yoshlarining jamiyat yuksalishida oʻrni beqiyos. Bunday yoshlarni barkamol etib tarbiyalovchi asosiy omillardan biri-

mutolaa qilish vositasi kitob hisoblangan. Bizni yerdan ko'kka ko'taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorug'lik va iliqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyot ham bu-kitobdir. Kitob insonni ulug'laydi, Vatanni sevish, insonparvarlik, o'zi yashab turgan hayotga shukronalik hissi bilan qarash, boshqalarga mehr-muruvvatli va xushmuomala bo'lish, atrofdagi insonlarga yaxshilik ulashish kabi insoniy fazilatlarini tarbiyalaydi. Kitobning inson hayotidagi ahamiyati beqiyos bo'lib, u inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'lguvchi sodiq do'stdir. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, bugungi kunda yoshlar va aholi o'rtasida kitobga bo'lgan qiziqish va kitobxonlik darajasini oshirish hamda kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kitobxonlik amalda keng joriy etish jarayonida birinchi navbatda mavjud kutubxonalarni rekonstruksiya qilish, ularning moddiy-texnik bazasini yangilash, kerakli ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, kutubxonalar faoliyatida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishimiz va undan samarali foydalanishimiz mumkin. Bu ishlarni amalga oshirilishi uchun zarur chora-tadbirlar belgilab berilgan va ularning ijrosi muntazam nazorat qilib borilmoqda. Buning yorqin dalili sifatida yurtimizni rivojlantirishdagi 5 ta muhim tashabbusga "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish"ni yo'nalish sifatida belgilab berilganligi fikrimizga yorqin misol bo'ladi. Buyuk bobokalonlarimiz ham bola tarbiyasida kitobning o'rni henihoya katta ekanligini, uni tafakkurning tolmas qanoti sifatida inson ma'naviy olamini boyitishi, yuksak ijodiy va yaratuvchalik vositasi sifatida nihoyatda qadrlash hamda undan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlan o'tganlar. Mutaxassislar bola hayotining ilk yosh davrini "mo'jizalar davri" deya nomlaganlar.[1]

Bu davrda bolalarga kitob o`qishga tayyorlanadi. Bunda avval nutq malakalarini, eshitish va so`zlashishni mukammal o`rganib olishlari lozim. Bolalarni kitobga bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish jarayonini biz albatta oiladan boshlasak juda ijobiy natija berishi va undan keyin maktabgacha ta`lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda davom ettirsak kutilgan natijaning yanada samarali bo`lishi mumkin. Oilada tarbiyaning barcha mezonlari shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyati ham sh maskandan boshlansa yaxshi samara beradi. Chunki, “Qush uyasida ko`rganini qiladi”, degan behudaga aytilmagan. Muqaddas maskanda ota-ona bolalarni kitobga bo`lgan qiziqishlarini orttirishda o`zlari namuna bo`lishlari va o`zlari kitob mutoola qilishlari yaxshi samara beradi. Oilada ota-ona kitobga mehr qo`ygan bo`lsa bunday oilada tarbiyalanayotgan farzand ham kitobga oshno bo`ladi, bunday bolalarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi keng bo`ladi, xushmuomala, mehribon, boshqalarga iloji boricha yaxshilik qilishga urinadigan, har bir aytayotgan so`zi, qilayotgan ishini o`ylab bajaradigan, bir so`z bilan aytganda, o`zida barkamol shaxs xislatlarini namoyon qilishga harakat qiladigan ziyoli farzand bo`lib voyaga yetadi. Oila muhitida kitobxonlikning tizimli ravishda olib borilishi kutilayotgan natijaning samarasini yanada oshiradi. Bolalarga yoshlikdan o`zbek xalq ertaklaridan so`zlab berish bolalarda mehnatsevarlik, samimiylik, mehmondo`stlik kabi insoniy fazilatlarni hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtirom kabi tushunchalarni tarbiyalaydi. Bundan tashqari, buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Forobiy, Abdulla Avloniy, Niyoziy, Yusuf Xos Xojib, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlarimiz bilan tanishtiramiz va ularning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan fikrlar esa bola tarbiyasida asosiy manba bo`lib xizmat qiladi.[3:98]

Oilada esa kitobxonlik madanyatini shakllantirish uchun ota-ona nima qilishi kerak biz kitobxon oilamizmi bugun farzandim nima bilan band bolam maktabga tayyormi MTTga oid qo`llanmalar bilan qiziqib ko`rdimmi deya o`z oldiga shu kabi

savollar qoyib javob izlasa maqsadga muvofiq bolardi. Agarda oilada ota-ona bir-birini xurmat qilsa bolalar tarbiyasiga jiddiy yondashsa bo'sh vaqtdan unumli foydalansa ota-onaning o'zi o'rnak bo'ladigan darajada kun tartibiga amal qilsa namunali oila darajasiga yetkiza olsa, ulardan chiroyli ulardan baxtli oila bo'lmasa kerak nazarimda.

Madaniyatli oila darajasini jamiyatda olishni o'zi ham bir mas'uliyatdir. Ota-ona bolani faqat moddiy tomonini o'ylab yelib yugursa-yu ichki dunyosi orzu istaklari ma'naviy ehtiyojlarini unutsa bundan achinarli holat yo'q. Inson uchun ko'z o'ngida sodir bo'ladigan xodisalar o'zini xayotini yo'lga qo'yishida ham dastlabki poydevor hisoblanarkan. Shuning uchun talab qo'yishdan oldin to'xta men o'zim shu ishni qila oldimmi, bunga o'rnak bo'la oldimmi deya savol berib ko'rish kerak. Aytaylik kitobxon bola bo'lish uchun bunda ota-ona bolaga bir dunyo kitob olib bersayu, bir-bir varaqlab qo'yadida shuncha kitobni qachon o'qib tugataman deya ensasi qotib tashlab qo'yadi. Nega o'qimading deb tanbeh berishni o'zi noto'g'ri. Otalar telefondan, Onalar serialdan bosh ko'tarmasalar bolalarga kitob mutolasi gazeta o'qib, yangiliklardan xabardor bolish mumkunligini kitob eng yaxshi do'st ekanligini kitobni o'qib va uqib olish kerakligini aytmasalar o'zlari namuna bo'lmasalar oilada kitob javoniga etibor bermasalar bari befoyda. Kitoblar chang bosib yotaversa, oila tarbiyasi tang axvolga kelib qolishi xech gap emas. Shu bois yurtboshimiz kitob o'qing, ma'naviyatni yuksaltiring deb bekorga aytmaydilar, Bu bilan insonlar xayotga real ko'z bilan qarashlikka undab, madaniyatli ma'rifatli va ma'naviyatli jamiyat yaratish kerakligini aytmoqdalar. [4:56]

Mamlakatimiz rahbari ham yosh avlod ta'lim-tarbiyasida kitobning o'rni va ahamiyati beqiyos ekanini alohida ta'kidlab, "Ayni vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi",

aytgan fikrlari fikrimizning dalilidir . Yuqoridagi bayon etilgan fikrlarga tayangan holda quyidagilarni ota-onalarga tavsiya etishimiz mumkin: – Bolani kitobga qiziqtirish uchun o`zingiz namuna bo`ling; – O`qigan kitobingizdan namunalar o`qib bering yoki hikoya qilib bering; – So`zlab berish uchun bolani yoshiga mos fikrlarni tanlab oling; – Oilaviy kutubxonani shakllantiring, bunda bola uchun alohida bo`lim tashkil eting; – Bolani yosh xususiyatlariga mos kitoblar tanlang va sotib oling; – Farzandingizga tovush chiqarib, sanoq she`rlarni, tez-tez takrorlanuvchi satrlardan iborat bolalar she`rlarini, rasmi kitobchalarni, turli hikoya va ertaklarni muntazam o`qib bering; – Kichkintoylar uchun mo`ljallangan kutubxona va kitob do`koniga vaqti-vaqti bilan olib boring; – Talagan kitoblaringiz pedagogik-psixologik talablarga javob bersin.[5:112]

Xulosa qilib aytganda, barcha ezgu ishlarning, bunyodkor g`oyalarning asosi bu kitobdir. Bizga ilm nurlarini sohadigan ham kitobdir. Shuning uchun ham biz bugungi kunda kitobga bo`lgan qiziqishni oiladan boshlasak va bu uchun ularni yoshiga mos kutubxonalarni shakllantirsak nur ustiga a`lo nur bo`ladi. Bolada o`qish malakalarni shakllantirish negizida og`zaki nutq rivojlanish va kitobga muhabbatni oshirish lozim. Biz buyuk ishlarga qodir yoshlarimizni hayot yo`llarida hamroh va maslahatgo`y, bir umrlik sodiq do`st –kitobga tayanishni oiladan boshlasak, kelajagi buyuk yurtimiz uchun munosib bunyodkor yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazishda o`z hissamizni qo`shgan bo`lardik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus-T.: 2019 yil, 19-mart.
2. G`oziyev E.G`.Ontogenez psixologiyasi,T.: 2010 yil.

3. Yusupov U., Gaybullayeva M. Yoshlarning ijodiy tafakkurini shakllantirish //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 515-518.
4. Yusupov U., Baxtiyorova M. Ijtimoiy gender stereotiplar //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 452-455.
5. Yusupov U., Ergasheva M. Bolada axloqiy va madaniy malakalarni shakllantirishda oilaning roli //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 442-445.
6. Abdurasulov R., Ibaydullayeva U. METHODS OF OVERCOMING INTERNAL CONFLICTS BETWEEN TEENAGERS //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020. – С. 1-7.
7. Ibaydullayeva U., Mamatqulova Y. Ota-ona va farzandlar ortasidagi inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam korsatishning oziga xos xususiyatlari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 471-473.